

Adabiyotlar

1. Allayorov R.X. Janubi-g'arbiy Hisor tog' va tog'oldi landshaftlaridan foydalanish va geoeologik vaziyatni optimallashtirish// G.f.f.d. (PhD) ilm. dar. olish uchun taqdim et. diss.. –T.: 2023.177-b.
2. Александрова Т.Д. и др. Геоэкологические основы территориального проектирования и планирования. –М.: «Наука», 1989. –С. 144.
3. Бакарасов В.А. Экология ландшафтов. –Минск: БГУ, 2010. –С.100.
4. Исаченко А.Г. География сегодня. –М: «Просвещение», 1979. –С. 192.
5. Исаченко А.Г. Ландшафтоведение физико-географическое районирование. – М.: «Высшая школа», 1991. –С. 368.
6. Козин В.В. К вопросу о парагенетических ландшафтных комплексах. // Науч. зап. Воронеж.отд. Геогр. об-ва СССР. – Воронеж: 1974. – С. 10-18.
7. Макунина А. А. Динамика ландшафта и её факторы. // Вопросы географии. Ландшафтоведение: теория и практика. – М.: «Мысль», 1982. – С. 16-22.
8. Мильков Ф.Н. Общее землеведение. – М.: «Высшая школа». 1990. –С. 335.
9. Сочава В.Б. Введение в учение о геосистемах. -Новосибирск: «Наука», 1978. –С. 319.
10. Ходжиматов А.Н. Антропоген ландшафтshunoslik. Darslik. –T.: 2023. 130-b.
11. Zokirov S.Sh, Toshov X.R. Landshaftshunoslik. O'quv qo'llanma. –T.: 2016. 251-b.

REZYUME. Ushbu maqolada bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblangan sug'oriladigan voha landshaftlarining dinamikasi nazariy jihatdan tahlil qilingan bo'lib. Maqolada asosiy e'tibor landshaftlar dinamikasini tadqiq etishda fan sohasining bir qancha fikrlari tahlil qilishga qaratilgan.

РЕЗЮМЕ. В этой статье теоретически анализируется динамика ландшафтов орошаемых оазисов, что считается одним из актуальных вопросов сегодняшнего дня. В статье основное внимание уделяется анализу нескольких моментов из области науки при изучении динамики ландшафтов.

SUMMARY. This article is a theoretical analysis of the dynamics of irrigated Oasis landscapes, which is considered one of the pressing issues of today. The main focus of the article is on the analysis of several points of the field of Science in the study of landscape dynamics.

NAVOIY VILOYATI MEHNAT RESURLARINING SHAKLLANISHI VA AHOLI BANDLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Sh.Sh.Norov – doktorant

Navoiy davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: mehnat resurslari, aholi bandligi, tabiiy geografik omillar, iqtisodiy geografik omillar, demografik omillar, sotsial geografik omillar.

Ключевые слова: трудовые ресурсы, занятость населения, природно-географические факторы, экономико-географические факторы, демографические факторы, социально-географические факторы.

Key words: labor resources, employment of the population, natural and geographical factors, economic and geographical factors, demographic factors, socio-geographical factors.

Viloyat birinchi marta 1982-yil 20-aprelda tashkil topib, 1988-yilgacha shu maqomda mavjud bo'lgan. So'nggi marta esa u 27.01.1992-yilda qayta tiklangan. Maydoni 111,0 ming kv. km yoki respublika hududining yaqin to'rdan bir qismiga teng. Aholi soni esa 01.01.2023-yilda 1055,5 ming kishi. Mehnat resurslari soni 570,6 ming kishi. Bu geografik ko'rsatkichlar O'zbekiston miqyosida katta qutbiylik xarakteriga ega: maydoni bo'yicha ham, demografik salohiyati bo'yicha ham u ikkinchi, biroq hududiga ko'ra viloyat Qoraqalpog'iston Respublikasidan keyingi ikkinchi, aholi soni jihatidan esa faqat Sirdaryo viloyatidan oldinda. Ushbu taqqoslama ko'rsatkichlar Navoiy viloyatida aholi soni zichligining nihoyatda pastligidan guvohlik beradi [8].

Navoiy viloyati respublikamiz hududiy mehnat taqsimotida asosan, tog'-kon sanoati, shuningdek, rangli metallurgiya, kimyo, qurilish materiallari sanoati hamda qishloq xo'jaligida go'sht-jun chorvachiligiga ixtisoslashganligi bilan ajralib turadi.

Navoiy viloyati mehnat resurslarining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi guruxlarga ajratish mumkin;

- Tabiiy geografik omillar. Mazkur omillarga; tabiiy geografik o'rin, geologik tuzilishi, foydali qazilma konlarining mavjudligi, rel'yef xususiyatlari, iqlimi va suvlari, landshafti, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi kiradi.

- Iqtisodiy geografik omillar. Iqtisodiy geografik o'rin, tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi, aholining hududiy joylashuvi va harakati, bandligi, sanoat tarmoqlarining rivojlanganligi, qishloq xo'jaligi


tarmoqlarining ixtisoslashuvi, savdo va xizmat ko'rsatish tarmoqlarining tashkil etilganligi, transport va tashqi iqtisodiy aloqalar.

- Sotsial geografik omillar. Ushbu omillarga ta'lim, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish, chakana savdoaholining ijtimoiy guruxlarga mansubligi, ma'lumotlik darajasi, kasbiy qobiliyati, malaka darajasi, tibbiy – fiziologik ko'rsatkichlari, tarixiy urf-odatlar, mehnat qilishga bo'lgan qarashlari.

- Demografik omillar. Aholining takror barpo bo'lish jarayonlari yani, tug'ilish, o'lim, tabiiy ko'payish, oilaviy jarayonlar; nikoh va ajralish demografik omillarni asosini tashkil etadi.

Navoiy viloyati mehnat resurslarining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganganimizda tabiiy geografik omillarning o'zni juda yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin. Navoiy viloyati Respublikamizning markaziy va shimoliy qismida joylashgan. Viloyat katta masofada bitta qo'shni Qozog'iston Respublikasi bilan chegaradosh. Ma'muriy birliklardan g'arbda Buxoro, janub va janubisharqida Samarqand va shimoliy sharqda Jizzax viloyatlari bilan, shimolda va shimolig'arbda Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan, janubda qisqa masofada Qashqadaryo viloyati bilan tutash.

Viloyat geografik iqtisodiy kartada o'ziga xos tashqi hududiy qiyofaga ega bo'lib; uning asosiy yuki, qayta ishlash sanoati, demografik va iqtisodiy salohiyati juda kichik maydonni egallagan janubiy qismida, katta maydinni egallagan markaziy va shimoliy hududlarida ekstensiv, cho'l hududlarga xos yaylov chorvachiligi va tog'-kon sanoati tasahkil etilgan.



Navoiy viloyati hududi o'zining orografik xususiyatlari bo'yicha respublikaning boshqa mintaqalaridan keskin farq qiladi. Uning hududida kichikkichik qoldiq tog'liklar mavjud. Pasttekisliklar chekka shimol va shimolig'arbda, yirik botiqlar – Mingbuloq, Molali, Oyoqog'itma, Karakata. Qorator – viloyatning ichki qismida joylashgan. Balandliklar dengiz sathidan 250-300 m yuqorida, tog'liklarning eng tepa nuqtalari esa 2000 metrdan ortiq.

Viloyatdagi asosiy tog'lar Nurota, Oqtov, Qorator tizmalari janub va janubisharqda Turkiston va Zarafshon tizmalariga qo'shilib ketadi. Mazkur tog'lar turli xil qazilma zahiralarga ega. Foydali qazilma konlari kichik qoldiq tog'larda ko'p (Bo'kantov, Etimtov, Tomditov, Aytimov, Qozoqto'v, Ko'kpatas, Quljuqto'v, Beltov, Ovminzatov). Navoiy viloyati iqlimi nihoyatda quruq va kontinental, yog'in miqdori juda kam bo'lib, yillik o'rtacha 100-200 millimetrdan tashkil etildi. Bu esa viloyatda qishloq xo'jaligini, xususan uning dehqonchilik tarmog'ini rivojlantirishga noqulay sharoit hisoblanadi. Shu boisdan, Hududining asosiy qismi yaylov chorvachiligi va qorako'chilikka ixtisoslashgan. Viloyatda gidrografik gidrografik to'r uncha shakllanmagan; Navoiy shahri shimolidan oqib o'tuvchi Zarafshon daryosining suvi juda kamayib qoladi. Zarafshon daryosining quyi qismida sug'orma dehqonchilikni rivojlantirish maqsadida Quyimozor, To'dako'l, Sho'rko'l suv omborlari qurilgan bo'lib, ular asosan Buxoro viloyati suv taminotini yaxshilashga xizmat qiladi. Asosiy suvni taqsimlashda Amu Buxoro, O'ng qirg'oq, Chap qirg'oq, O'rtacho'l, Konimex kabi kanallar xizmat qiladi. Aydarko'l, Oyoqog'itma ko'llari va suv omborlari baliq xo'jaligida ahamiyati katta.

Mehnat resurslarining shakllanishida tug'ilish bilan bir vaqtda o'lim jarayonlariga ham alohida e'tibor beriladi. Mehnat resurslarining shakllanishiga ta'sir etuvchi omil sifatida o'rganish o'ta murakkab sanaladi, sababi bu sohada biologik va ijtimoiy asoslar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar keskin namoyon bo'ladi. Oxir-oqibatda o'lim inson organizmini biologik rivojlanishining g'alabasi sifatida barcha ijtimoiy qonuniyatlardan ustun keladi. Ayni vaqtda inson organizmi jamiyatda yashashi davomida sivilizatsiya yutuqlarining ijobiy jihatlaridan bahramand bo'libgina qolmay, balki atrof-muhitning salbiy ta'sirlaridan mutnazam stresslarga ham uchraydi. Shuning uchun davlatning aholi salomatligi va o'limiga nisbatan olib borayotgan siyosatidagi vazifalar faqatgina sanitariya-epidemiologik vaziyatni nazorat qilish bilan cheklanib qolmasligi lozim.

Viloyatning yuqorida tahlil qilingan tabiiy sharoiti aholi va mehnat resurslarining joylashishi va aholi bandligiga juda katta ta'sir ko'rsatgan. Hududning tabiiy xususiyatiga ko'ra uch mintaqa yaqqol ko'zga tashlanadi;

- Zarafshon rayoni; Navoiy shaxri, Karmana, Navbahor, Qiziltepa va Xatirchi tumanlari

- Nurota rayoni; Nurota tumani va G'ozg'on shaxri

-Qizilqum rayoni, Konimex, Tomdi, Uchquduq tumanlari va Zarafshon shaxri

Zarafshon rayoni viloyatning kichik janubiy qismi Zarafshon botig'ini bir qismini o'z ichiga oladi. Ushbu hududda viloyatning beshta ma'muriy birligi joylashgan, ya'ni, Navoiy shaxri, Karmana, Navbahor, Qiziltepa va Xatirchi tumanlari. Bu hudud sug'orma dehqonchilik rayoni bo'lib, aholi va mehnat resurslari juda zich joylashgan.

Nurota rayoni Shimoliy va Janubiy Nurota tog'lari hamda Nurota – Quytosh botiqlarida joylashgan. Mazkur

rayonda viloyatning ikki ma'muriy birligi joylashgan bo'lib, Nurota tumani va G'ozg'on shaharlarini o'z ichiga oladi

Qizilqum rayoni shu nomdagi cho'l hududida joylashgan bo'lib, Konimex, Tomdi, Uchquduq tumanlari va Zarafshon shaxri kiradi. Ushbu rayon viloyat hududini juda katta qismini egallagan (88 foizi) holda, Aholi va mehnat resurslari juda kam soni to'g'ri keladi.

Navoiy viloyatining aholi bandligida mineral resurslarning ahamiyati juda katta. Viloyatning yer ustining tuzilishi uning qazilma resurslarga boyligini ham ko'rsatadi. Viloyat hududi, ayniqsa, o'zining oltin zahiralari bilan ajralib turadi. Bu yerda oltindan tashqari qurilish materiallari xom ashyosi, marmar, uran, fosforit, asbest, dala shpati kabi konlarning yirik zaxiralari mavjud. Aynan mazkur mineral xom ashyo resurslari viloyat iqtisodiyotini shakllantirish, uning ishlab chiqarish va eksport salohiyatini rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi. Foydali qazilma konlaridan oltin Muruntov, Amantoytov, Oltintov, Ko'kpatas, Aristontol va boshqalarda, fosforit Jeroy-Sardoba konida, marmar konlari G'ozg'on, Oqtov, Ko'kpatasda, oxaktosh koni Tomdibuloqda, polimetal rudalar Oqetpes, Ko'kmanachi, Visokovoltnoe, Qorabugutda, mis rudasi Qoramurunda, turli xil qurilish materiallari xom ashyosi mavjud Oytim, Bepasan, Azkamar, Jeroy Sardara kabi konlarda bor.

- Demografik omillar. Aholining takror barpo bo'lish jarayonlari yani, tug'ilish, o'lim, tabiiy ko'payish, oilaviy jarayonlar; nikoh va ajralish demografik omillarni asosini tashkil etadi.

2023- yilda viloyatda tug'ilish darajasi 21,6 promilleni tashkil etgan holda ma'muriy birliklar bo'yicha katta hududiy farqlarga ega. Tug'ilish darajasining hududiy farqlariga ko'ra viloyat shahar va tumanlarini uchta guruhga bo'lishimiz mumkin;

Tug'ilish darajasi past bo'lgan hududlar: Navoiy shahri, Qiziltepa, Navbahor, Tomdi tumanlari;

Tug'ilish darajasi o'rtacha bo'lgan hududlar: Zarafshon shahri, Karmana, Nurota, Xatirchi tumanlari;

Tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan hududlar: Uchquduq va Kanimex tumanlaridir.

Demografik vaziyatning shakllanishida o'lim ham asosiy jarayonlardandir. O'limga ta'sir etuvchi omillar ikki guruhga ya'ni endogen va egzogen omillarga bog'liq bo'ladi. Endogen omillar ichki omillar bo'lib, inson organizmidagi o'zgarishlar bo'lgan omillardir. Egzogen omillar esa tashqi omillar bo'lib, ular tao'qi muhit ta'sirida sodir bo'ladi. Viloyat o'lim ko'rsatkichlariga ikkinchi omilning ta'siri kattadir. Navoiy viloyatining muloq soni 4495 kishini tashkil etgan, ya'ni o'limning umumiy koefsenti 4,7 promillnga teng bo'lgan. O'lim ko'rsatkichlarida ham shahar va qishloq tumanlarida hududiy farqlar yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'limning umumiy koefsenti nisbatan kam bo'lgan hududlar (4,5 promillegacha), Zarafshon shahri, Navbahor, Tomdi, Qiziltepa tumanlari.

O'limning umumiy koefsenti o'rtacha bo'lgan hududlar (4,6-5,0 promillegacha), Navoiy shahar, Xatirchi, Karmana, Nurota tumanlaridir.

O'limning umumiy koefsenti nisbatan yuqori bo'lgan hududlar (5,1 promillegacha yuqori), Uchquduq va Kanimex tumanlaridir.

Aholining tabiiy harakati, aholining tabiiy o'sishi ko'rsatkichlari orqali ifodalanadi. Aholining tabiiy ko'payishini mutloq va nisbiy ko'rsatkichlari mavjuddir. Aholining mutloq ko'rsatkichlari asosida hududlarin taqqoslab bo'lmaydi, chunki har bir hudud aholisining soni turlicha bo'lib, ulardagi tug'ilganlar va o'lganlar soni aholining umumiy soniga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham hududlar aholisini taqqoslashda tabiiy o'sish koefisientidan foydalaniladi. Navoiy viloyatida tabiiy o'sishning mutloq soni 13876 kishini tashkil etgan.

Aholining 15,7 promilleni tashkil etgan holda tumanlar bo'yicha qo'yidagi hududlar farqlarga egadir;

Tabiiy o'sish koefsenti 15,0 promillegacha kam bo'lgan shahar va tumanlar, Navoiy shahar, Qiziltepa, Navbahor, Navbahor, Tomdi tumanlari,

Tabiiy o'sish koefisienti 15,1 promillegacha 18,0 promillegacha bo'lgan qishloq tumanlari, Kanimex, Nurota va Kanimex tumanlaridir.

Tabiiy o'sish koefisienti yuqori ko'rsatkichi Uchquduq tumaniga to'g'ri keldi, ya'ni tabiiy o'sishning nisbiy ko'rsatkichi 20,0 promilleni tashkil etgan.

Aholi takror barpo bo'lishida birinchi navbatda oilani tashkil topishi ahamiyatlidir. Oila shakllanishining hududiy xususiyatlari va tarkibini o'rganish aholi geografiyasining muhim vazifalaridan hisoblanadi. Oilaning shakllanishi esa, o'z o'rnida nikoh va ajralish jarayonlari bilan chambarchas bog'liqdir. Nikoh erkak va ayolning tarixan tarkib topgan, jamiyat tamonidan muayyan tarkiyuga solib turiladigan o'zaro hamda bolalarga nisbatan munosabatlari shaklidir. Nikoh o'z evalyutsiyasiga, turlariga ega bo'lgan sotsial jarayondir. Nikohni qayt etish fuqorolarning tartib qonun va qoidalar va diniy urf – odatlarga ko'ra amalga oshiriladi. Nikohlanuvchilarning soni o'z navbatida tug'ilish darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Navoiy viloyati nikohning umumiy sonida (9748 ta) respublikamiz ma'muriy birliklar ichida o'n uchunchi o'rinda turadi, bu esa aholining umumiy soni bilan bog'liqdir. Nikohga kiruvchilarning umumiy koefisientida (11,0 promille) esa yuqori o'rinlarni egallaydi. Nikohga kiruvchilar sonini hududiy jihatlarga e'tibor beradigan bo'lsak Xatirchi -2100 ta, Qiziltepa – 1472 ta, Karmana - 1337 ta, tumanlarida yuqori hisoblanadi. Tomdi - 152 ta, Konimex – 375 ta, Uchquduq -475 ta, qo'yi o'rinlarni egallaydi. Bu ko'rsatkich tumanlarning aholi soni bilan bog'liq. Har ming aholiga o'rganadigan bo'lsak;

Nikohning umumiy koefisienti past bo'lgan hududlar (10,0 promillegacha); Navoiy, Zarafshon shaharlari, Nurota, Tomdi tumanlari.

Nikohning umumiy koefisienti o'rtacha bo'lgan hududlar (10,1-12,0 promillegacha); Qiziltepa, Navbahor, Xatirchi tumanlari.

Nikohning umumiy koefisienti yuqori bo'lgan hududlar (12,1 promillegacha ko'p) ; Karmana, Kanimex, Uchquduq tumanlaridir.

Yana bir demografik jarayonlardan biri ajralishdir. Ajralish er –xotinning xayotlik davrida nikohning bekor etilishidir. Ajralish murakkab sotsial jarayon bo'lib, qator omillar ta'sir ko'rsatadi; Oilaning tarkibi, sotsial tartib, bilim darajasi va saviyasi, er – xotin o'rtasidagi munosabatlar ta'sir ko'rsatadi. Navoiy viloyatida 2023 yilda 718 ta ajralish qayt etilgan, ya'ni har ming aholiga nisbatan 0,8 promilleni tashkil etgan. Ajralish jarayonlari shaharda nisbatan yuqori: Navoiy shahrida 1,3 promille, Zarafshon shahrida 2,0 promille, Uchquduq tumanida 1,5 promille, aksincha ajralish koefisienti nisbatan kam: Tomdi tumanida 0,2 promille, Nurota tumani 0, 3 promille, Xatirchi va Karmana tumanlarida esa 0,5 promilleni tashkil etgan.

Navoiy viloyati demografik jarayonlari va ularning hududiy jihatlari o'rganishda qo'yidagi xulosalarni ko'rsatishimiz mumkin. 2023-yilda viloyat demografik jarayonlari shahar va qishloq tumanlarida katta hududiy farqlar ko'zga tashlandi. Tabiiy ko'payish ko'rsatkichlari qishloq tumanlarida ayniqsa, cho'l hududida joylashgan olis tumanlarda yuqori bo'ldi. Nikohlarni buzilishi shaharlarda yuqoriligi bilan ajralib turdi.

- Iqtisodiy geografik omillar. Iqtisodiy geografik o'rin, tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi, aholining hududiy joylashuvi va harakati, bandligi, sanoat tarmoqlarining rivojlanganligi, qishloq xo'jaligi tarmoqlarining ixtisoslashuvi, savdo va xizmat ko'rsatish

tarmoqlarining tashkil etilganligi, transport va tashqi iqtisodiy aloqalar.

Navoiy viloyati barcha sohalarida o'ziga xos mavqeni egallaydi. Sanoatning ulushi bo'yicha respublikamizda birinchi, biroq qishloq xo'jaligi, savdo va umumiy ovqatlanish, soliqlar, kichik biznes hamda xizmatlar ulushi bo'yicha ham "birinchi", faqat viloyat ro'yxatlari oxiridan. Darhaqiqat, viloyat YAHMning atigi 36,9 foizini kichik biznes hissasiga tushadi, vaholanki, bu ko'rsatkich respublika bo'yicha o'rtacha 55 foizdan ziyod. Bunday mintaqaviy xususiyatlar ko'proq viloyatning tabiiy sharoit va resurslaridan kelib chiqqan holda, xo'jaligining tarmoqlar tarkibi va ixtisoslashuvi, demografik vaziyatiga bog'liq.

- Sotsial geografik omillar. Ushbu omillarga ta'lim, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish, chakana savdoaholining ijtimoiy guruxlarga mansubligi, ma'lumotlik darajasi, kasbiy qobiliyati, malaka darajasi, tibbiy – fiziologik ko'rsatkichlari, tarixiy urf-odatlar, mehnat qilishga bo'lgan qarashlari.

Sanoat, qishloq xo'jaligi va umuman ishlab chiqarishning "egasi", amalga oshiruvchisi inson, mehnat resurslari hisoblanadi. Ijtimoiy sohalarida ham aholi xizmat qiladi, biroq bu xizmat insonning o'ziga, uning sog'lig'i, ta'limi, dam olishi, davolanishi va boshqa ehtiyojlarini qondirishga qaratiladi. Shu nuqtai nazardan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish o'zaro chambarchas bog'liq va ularni bir-biridan keskin ajratib bo'lmaydi.

Adabiyotlar

1. Abirqulov Q. Iqtisodiy geografiya. –T.: 2004.
2. Abduraxmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti; nazariya va amaliyot. – T.: "Mehnat", 2004.
3. Алаев Э.Б. Социально-экономическая география. Понятийно- терминологический словарь. – М.: 1980.
3. Bo'riyeva M, Tojiyeva Z., Zokirov S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. –Toshkent: 2011.
4. Копилов В.А. География населения. -Москва: "Мысль", 2000.
5. Qayumov A. va boshqalar. Aholi geografiyasi va demografiyasi. –Toshkent: 2009.
6. Soliev A.S., Maxamadaliev R. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya asoslari. – T.: 2005
7. Soliev A., Qarshiboeva L. Iqtisodiy geografiyaning nazariy va amaliy masalalari. -T.: 1999.
8. Soliyev A. O'zbekiston Geografiyasi (O'zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi). –Toshkent: "Universitet", 2014.

REZYUME. Maqolada Navoiy viloyati mehnat resurslarining shakllanishi va aholi bandligiga ta'sir etuvchi omillar, ya'ni, tabiiy geografik omillar, iqtisodiy geografik omillar, demografik omillar, sotsial geografik omillar tahlil qilingan.

РЕЗЮМЕ. В статье проанализированы факторы, влияющие на формирование трудовых ресурсов и занятость населения Навоийской области, а именно природно-географические факторы, экономико-географические факторы, демографические факторы, социально-географические факторы.

SUMMARY. The article analyzes the factors affecting the formation and employment of Labor resources of the Navoi region, namely, natural geographical factors, economic geographical factors, demographic factors, social geographical factors.

QORAQALPOG'ISTON USTYURTIGA TABIIY-GEOGRAFIK TAVSIF

Q.P.Turdbaev – *tayanch doktorant*

Ya.I.Ametov – *b.f.d., professor*

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Tayanch so'zlar: Ustyurt, shimoliy, markaziy, janubiy Ustyurt, chink, dengiz sathi, havo harorati, yog'ingarchilik miqdori, o'simlik va hayvonot dunyosi.

Ключевые слова: Устюрт, северный, центральный, южный Устюрт, чинк, уровень моря, температура воздуха, количество осадков, флора и фауна.

Key words: Ustyurt, northern, central, southern Ustyurt, chink, sea level, air temperature, precipitation, flora and fauna.

Ustyurt tekisligi Kaspiy va Orol dengizlari oralig'ida joylashgan, barcha tarafi tabiiy chegara, chinklar bilan chegaralangan. Ustyurt tekisligi administrativlik tomondan Qozog'iston Respublikasi (shimoliy-g'arbiy qismi), Turkmaniston Respublikasi (janubiy qismining ozgina hududi) va O'zbekiston Respublikasi (janubiy-sharqiy qismi) tarkibiga kiradi.

Qoraqalpog'iston Respublikasiga Ustyurt tekisligining janubiy-sharqiy qismi tegishli bo'lib, u administrativlik tomondan Qoraqalpog'iston Respublikasining Qo'ng'iro'tumani tarkibiga kiradi. Qoraqalpog'iston Ustyurti shimoliy-g'arbiy tomoni Qozog'iston Respublikasi, janubda Turkmaniston Respublikasi, janubiy-sharqda Qoraqalpog'iston Respublikasining Shumanay tumani, sharqda Mo'ynoq tumani bilan chegaradosh.

Ustyurt tekisligining umumiy maydoni 21 mln ga bo'lib, shundan Qoraqalpog'iston Respublikasiga tegishli qismi 7,1 mln ga. Hudud shimoldan janubga 500 km., g'arbdan-sharqqa 350 km masofaga cho'zilgan va dengiz sathidan 63-287 metr balandlikda joylashgan. Qoraqalpog'iston Ustyurti sharqiy, janubi-sharqiy va janubiy tomonlari tabiiy chegara tik jarliklar «chink»lar bilan chegaralangan. Ularning balandligi 150 metrga qadar yetadi. Ustyurtning janubi-sharqida Sariqamish ko'lining O'zbekiston Respublikasiga tegishli qismi joylashgan.

Ustyurt platosining usti relyefi bo'yicha bir tekisdek ko'rinadi, lekin aslida to'lqinsimon ko'rinishga ega. Shu bilan birga dengiz sathidan balandligi ham bir xil emas [3].

Ustyurtida deyarli kenglik bo'yicha joylashgan uchta botiq va ikkita tepalik mavjud. Ustyurtning shimolida o'rta qismi sho'rxoklardan iborat balandligi 100 m dan oshmaydigan botiqlar bor. Bu botiqlardan janub tamonda

Kassarma tepaligi joylashgan. Kassarma tepaligining janubida Borsakelmas botig'i joylashgan. Bu botiq tubining dengiz sathidan balandligi 63 m bo'lib sho'rxoklardan iborat. Borsakelmas botig'ining atrofi balandlashib, balandligi 150 m ga yetadigan yassi tekislikka aylanadi. Tekislikda ham sho'r yerlar uchraydi.

Borsakelmas botig'idan janubiy tomonda yer sathi asta balandlashib, Qorabovur tepaligi qirlariga tutashib ketadi. Qorabovur tepaligining usti yassi, dengiz sathidan mutlaq balandligi 150-290 m. Qorabovur tepaligining janubida dengiz sathidan balandligi 27-100 m gacha bo'lgan Asakaovdan botig'i joylashgan. U sharqda Sariqamish botig'i bilan tutashib ketadi.

Qoraqalpog'iston Ustyurti iqlimi va tuproq-geobotanik sharoitiga qarab 3 ta tabiiy geografik rayonga bo'linadi [2:106-111; 3:4]. Bular Shimoliy, Markaziy va Janubiy Ustyurt rayonlaridir.

1. Shimoliy Ustyurt hududi Qo'sbuloq qudug'iga parallel joylashgan Qoraqalpog'iston Ustyurtining dengiz sathidan balandligi 150 m dan ortmaydigan shimoliy tekislik qismi kiradi. Rayon hududining sharqiy qismida Oqtumshuq chinki yaqinida dengiz sathidan balandligi 220-256 m gacha yetadigan tekisliklar mavjud.

2. Markaziy Ustyurt tabiiy geografik rayoni maydoniga ko'ra eng katta rayon bo'lib, Qoraqalpog'iston Ustyurtining markaziy qismini egallaydi. Markaziy Ustyurt hududi Qo'sbuloq qudug'ining janubiy tarafidan Qorabovur tepaligigacha hududni o'z ishiga oladi. Bu rayon Ustyurtidagi balandligi eng past rayon hisoblanadi. Borsakelmas botig'ida eng past nuqta 63 m bo'lsa, rayon shimolida 150 m ga yetadi. Borsakelmas tubi sho'rxok bilan qoplangan botiq. Uni atrofidan sal qiya tekislik o'rab turadi.